



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2024-YIL YANVAR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-203-88-07

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2024-yil yanvar oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida shahar korxonalari tomonidan 7,7 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 112,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (65,8 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,1 trln. so'mni tashkil etdi.




B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 12,4 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 36,9 % ga, Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 8,8 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 53,9 % ga o'sish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,7 trln so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 12,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, % da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Neft, ming t.	56,3	51,3	-5,0
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	2924,9	2785,7	-139,2
Gaz kondensati, ming t.	57,6	63,2	5,6
Chaqiq tosh ming t.	8400,0	6059,6	-2340,4


Shagʻal t.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,1 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 112,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (2024-yanvar oyi, % da)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,7% ni (2023-yilning yanvar – oyida – (14,1%), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,2 % (20,7%), o'rta-quyi texnologiyali – 31,8 % (23,4%) va quyi texnologiyalisi – 40,3 % (41,8%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 17,0 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 117,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 12,6 % (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 130,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,5% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 85,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,1% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,1% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 116,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2024-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 617,5 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (2 martaga), 3824,3 tonna paxtadan yigirilgan ip (50,7% ga oshgan), 758,8 tonna Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar (45,5 % ga kamaygan) va hamda 1358,8 tonna Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar (7,3 marta oshgan) ishlab chiqarilishi o'sganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar




Margarin va yormalar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Pivo




Aroq




Uzum vinosi



Tamaki mahsulotlari



Paxtadan yigirilgan ip




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.	6,947	4,941	-2,006
Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.	2,538	3,824	1,286
Margarin va yormalar tonna.	179,6	0,5	-179,1
Pivo – mln litr	2,275	5,211	2,936
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	19,845	5,877	13,968
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	101,8	233,9	132,1
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.	166,0	656,3	490,3

Metallurgiya sanoati (2024-yil yanvar oyida)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 8,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 52,8% ga ko'paygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 12,6 %ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 130,9 va ishlab chiqarish hajmi 969,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 49,3% ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 118,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 207,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (yanvar –oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 14,1 % ga kamaygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 697,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – oyida)



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 8,9 % ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 130,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 571,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 88,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 11,9 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 259,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – oyida)



FHI
% da



2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 79,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 83,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

2023-yilning yanvar-oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 94,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi 16,5 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 313,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar oyida)

FHI
% da




2023-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 46,1 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 22,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar oyida)

FHI
% da



2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 24,0% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 14,3 % ga oshgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 17,0 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 117,9% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 1 310,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 94,4 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi 116,5% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 313,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash yanvar oyida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,8 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,9 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,9 % ga oshgani kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, % da)



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	351,6	370,9	19,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1604,3	1431,2	-173,1

Elektroenergiya uzatish
bo'yicha xizmatlar, mln so'm.


85,8

156,7

70,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(yanvar oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar oyida, % da)



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	14,1	31,1	17,0
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	15,5	17,7	2,2
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	21,7	50,3	28,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 20 % ga , oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov

berish bo'yicha xizmatlar 2,2 martaga , tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 2,3 martaga o'sish kuzatildi.

Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,9 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida 131 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16